

## EKOLOGIK MUAMMOLAR VA XALQARO HAMKORLIK

*O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi xuzuridagi  
Fuqaro muhofazasi instituti katta o'qituvchisi*

**A.A Maxmudov**

**Annotation:** *This article provides information on regional environmental problems, their types and solutions, cooperation with international organizations on these issues, water scarcity and its prevention in the Central Asian region, including the Republic of Uzbekistan.*

**Keywords:** *Environmental safety, environmental problems, forest fires, water resources, plantings, clutches, hydraulic structures, dams, clutch, earthquakes, landslides, severe floods.*

**Аннотация:** *В данной статье представлена информация о региональных экологических проблемах, видах и их решениях, сотрудничестве с международными организациями по этим вопросам, дефиците воды и его предупреждению в Центрально-Азиатском регионе, в том числе в Республике Узбекистан.*

**Ключевые слова:** *Экологическая безопасность, экологические проблемы, лесные пожары, водные ресурсы, насаждения, сцепления, гидротехнические сооружения, плотины, дамбы, землетрясения, оползни, сильные наводнения.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada mintaqaviy ekologik muammolar, ularning turlari va yechimlari, ushbu masalalar bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, Markaziy Osiyo mintaqasida, jumladan, O'zbekiston Respublikasida suv tanqisligi va uning oldini olish haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ekologik havfsizlik, ekologik muammolari, o'rmon yong'inlari, suv resurslari, to'qayzorlar, changalzorlar, gidrotexnik inshootlar, to'g'on, dambalar, yer silkinishi, yer surilishi, kuchli sel kelishi.*

Aholi sonining o'sishi, fan va texnika taraqqiyoti, inson ehtiyojlarining ortishi oqibatida yer yuzida qator ekologik muammolar yuzaga keldi. Bugungi kunda sof tabiat haqida gap yuritish mushkul. Yer yuzidagi o'rmonlar ko'payish o'rniga tobora qisqarib bormoqda, katta-katta tabiiy hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o'zlashtirildi, tabiat va havo har xil chiqindi hamda gazlar hisobiga ifloslanyapti. Bundan tashqari, tabiatda toshqinlar, o'rmon yong'inlari, chang bo'ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz bermoqda. Bularning barchasi pirovardida tabiat muvozanatiga putur yetkazyapti. Shu bois, davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida jahon hamjamiyati e'tiborini yana bir bor davrimizning o'tkir muammolaridan biri — Orolbo'yi hududidagi ekologik holatga qaratib, jumladan, bunday dedi: "Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda".

Ekologik muammolar shartli ra vishda 3 guruxga bo'linadi:

- mahalliy ekologik muammolari;
- mintaqaviy ekologik muammolari;
- sayyoraviy ekologik muammolari.

Mahalliy ekologik muammolar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tuproq unumdorligining keskin pasayib ketishi va hozirgi kunga kelib 30% foydalanayotgan yerlar o'tgan asrning 60-yillariga nisbatan qiyoslanganda yaroqsiz holga kelib qolgan;

- sanoat va kimyo korxonalari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni qayta ishlash samaradorligining juda pastligi;

- ichimlik suvining qayta tiklanishidagi samaradorlikning pastligi;

- o'simlik dunyosining ayrim turlari, to'qayzorlar, changalzorlar, ayrim turdagi hayvonot dunyosining yuqolib ketishi.

Masalan, tustovuq, tuvaloq, qirg'ovul, tulki, turon yo'lbarzlari va arxarlari.

Bugungi kunda Mintaqaviy ekologik muammolar tarkibiga bir qator muammolarni kiritish mumkin:

- avtotransport vositalaridan

- nooqilona foydalanish yuzasidan atmosferaning keskin ifloslanishi;

- dengiz va daryolarning qurishi;

- qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv resurslaridan nooqilona foydalanish (Qirg'iziston yoz faslida suv resurslarini tejab kish faslida qo'yib yuborishi va Kozogiston Respublikasi kichik Orolni tashkil etish uchun Sirdaryodan kelayotgan suvga qurishi va hokazolar). Sayyoraviy ekologik muammolar tarkibiga:

- haroratning iliqlanishi va atmosfera havosining ifloslanishi;

- ozon qatlamining yemirlishi;

- yer sathi qisqarishi (Angliya Yaponiya va boshqa davlatlar).

Shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda ekologik xavfsizlik butun bir jamiyat hayotiga xavf solib turgan hodisadir. Bizning nazarimizda yuqorida sanab o'tilgan asosiy yo'nalishlarni amalga oshirishda birinchi navbatda insonlarning tabiatga bo'lgan munosabatini va ularning ongini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari sifatida kunidagilarni e'tirof etish lozim:

1. Tabiiy resurslar, jumladan, yer mineral xom ashyo, biologik va asosan qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslardan oqilona va kompleks foydalanish.

2. Respublika hududida atrof-muhitning ifloslanish darajasini ekologik-gigiyenik va sanitariya meyorlarigacha kamaytirish.

3. Hududiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha Orolbuyi ekologik halokatga uchragan xududlarda ekologik holatni sog'lomlashtirish va tiklash, shuningdek, mamlakatning boshqa noqulay ekologik sharoit mavjud hududlarida kompleks tadbirlar o'tkazish.

4. Respublika aholisini sifatli ichimlik suvi, oziq-ovqat va dori-darmon vositalari bilan ta'minlash.

5. Chiqitsiz (kamchiqitli) ekologik toza va resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishga mo'ljallangan texnologiyalarni amalga tatbiq etish.

6. Ekologiya sohasida ilmiy-texnikaviy salohiyatni shakllantirish, rivojlantirish hamda fan va texnika yutuqlaridan foydalanish.

7. Turli davlat organlari va tabiatdan foydalanuvchilar o'rtasida xuquqiy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish.

8. Yagona monitoring xizmatini tashkil etish, bashorat va ma'lumotlar, sifatli ichimlik suvi, oziq-ovqat va dori-darmon tizimini nazorat qilishni takomillashtirish.

9. Ekologik halokat, favkulodda xolatlar va avariya ogohlantirish va uning okibatlarini bartaraf etish.

10. Markaziy Osiyoning ekologik xavfsizlik tizimini shakllantirish.

11. Ekologik ta'lim tizimida aholini tarbiyalash va ekologik madaniyatni rivojlantirish va takomillashtirish.

12. Ekologik muammolarni yechishda jahon hamjamiyati bilan hamkorlikni chuqurlashtirish. "Uzbekiston Respublikasining BMT YEIK jamoatchiligini atrof-muxitga oid masalalar bo'yicha ma'lumot olish erkinligi, qarorlar qabul qilish jarayonida va odil sudda qatnashishi haqidagi Konvensiya qo'shilishi to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Qonun loyihasi tayyorlanib, Vazirlar Mahkamasiga pullandi. O'zbekiston istiklolga erishgan kundan boshlab Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimining dasturlarida faol ishtirok etmokda va uni muassasalari bilan hamkorlik qilib kelmokda. Jumladan, O'zbekiston BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha Komissiyasining a'zosi hisoblanadi va shu kungacha 150 dan ortiq Xalqaro Konvensiya hamda Bayonnomalarini ratifikatsiya qilgan.

Respublika Yevrosiyo iqtisodiy hamkorligi (YevroIX), Markaziy Osiyo Hamkorlik tashkiloti (MOHT), Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) a'zosi xisoblanadi. Mintaqada suv resurslaridan foydalanishni muvofiqlashtirish masalalariga befarq bo'lmagan O'zbekiston Iqtisodiy Hamkorlik tashkiloti (IHT) va Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorligi (MOIH) singari yirik mintaqaviy tuzilmalarga a'zo O'zbekiston Respublikasi Butunjahon meteorologiya Tashkilotining deyarli barcha dasturlari, shu jumladan, gidrologiya, meteorologiya, iklim, axborotlar, alohida xavfli gidrometeorologik hodisalar, qurg'oqchilikni boshqarish, gidrometeorologik xavfsizlik bo'yicha xalqaro o'n yillikni o'tkazish sohasidagi dasturlarning ishtirokchisi hisoblanadi, shuningdek, YUNESKOning xalqaro gidrologik dasturi xamda MDH mamlakatlari gidrometeorologiyasi buyicha Davlatlararo kengashi ilmiy dasturlari azosidir.

O'zbekistonning manfaatdorligi va faolligi ko'proq darajada Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligida namoyon bo'lmokda. Mazkur hamkorlik Markaziy Osiyo davlatlari Qozogiston, Qirgiziston, Tojikiston, Turkmaniston hamda O'zbekiston a'zo hisoblangan. Amaldagi Orolni qutqarish Xalqaro jamg'armasi doirasida davom etib kelmokda. Orolni qutqarish Xalqaro jamg'armasi faoliyatining asosiy vazifasi Markaziy Osiyo xududida barqaror rivojlanishga erishish uchun aholini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, tabiiy muhitni

muhofaza qilish hamda ekologik xolatni yaxshilash masalalarini hal qilish bo'yicha xarajatlarni muvofiklashtirishni amalga oshirish xisoblanadi.

Orolni qutqarish masalasida ko'plab Yevropa mamlakatlari xam jonbozlik ko'rsatdi. Masalan, 2008-2010 yillar mobaynida texnik hamkorlik bo'yicha Germaniya agentligining moliyaviy ko'magi ostidagi chora-tadbirlar rejasiga muvofik "Orolni qutqarish Xalqaro jamg'armasining Tashkiliy tuzilmasi hamda shartnoma huquqiy ba'zasini takomillashtirish va Orol dengizi havzasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda ekologik holatni yaxshilash dasturini ishlab chiqish loyihasi amalga oshirildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Orolni qutqarish Xalqaro jamg'armasiga a'zo davlatlar ishchi guruhlarini faoliyatini natijalar bo'yicha 44 ta mintaqaviy loyiha shakllangan edi.

Davlatni aql-idrok bilan boshqarish, mutafakkir Abu Nasr Farobiy X asrda saboq berib aytgandek, xalq boshiga tushgan xavf-xatarni kamaytirish va bartaraf etishdan iboratdir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab BMT tizimining dasturlarida faol ishtirok etmoqda va uning muassasalari bilan hamkorlik qilmoqda. Jumladan, O'zbekiston BMTning barqaror rivojlanish buyicha Komissiyasining a'zosi hisoblanadi va shu kungacha 150 dan ortik Xalqaro Konvensiya hamda Bayonnomalarni ratifikatsiya qilgan.

O'zbekiston global suv hamkorligi tashkilotining a'zosi hisoblanadi, chunki, suv resurslaridan foydalanish va taqsimlash muammolari xamda ularni hal etish respublika uchun birinchi o'rinda turadi. Global suv hamkorligining mintaqaviy bo'limi Markaziy Osiyo va Kavkazorti Global Suv Hamkorligi tashkiloti Global suv hamkorligi yondashuvlarini tatbiq etish bo'yicha mintaqaviy tashkilotlarning o'zaro manfaatli tajribaga ega bo'lishi, axborot almashinuvi va faoliyat salohiyatini rivojlantirish uchun suv resurslarini boshqarish va undan foydalanishga jalb etilgan tashkilotlarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi.

Xulosa sifatida aytish joizki O'zbekiston Respublikasining Yevroosiyo iktisodiy hamkorligi, Markaziy OSIS xamkorlik tashkiloti, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti a'zosi xisoblanadi. Mintaqada suv resurslaridan foydalanishni muvofiqlashtirish masalalariga befarq bo'lmagan O'zbekiston Iktisodiy Hamkorlik Tashkiloti na Markaziy Osiyo mintaqaviy iktisodiy hamkorligi singari yirik mintaqaviy tuzilmalarda muhim o'rin tutadi, shuningdek, Orol muammosini hal qilishda xam yetakchilik qilmoqda.

Suv toshqini - daryo, kul yoki dengiz suvi sathining ko'tarilishi natijasida quruqlikni suv bosishi. Daryo suvi, asosan, havo harorati keskin ko'tarilib, qor yoki muzliklar qisqa vaqtda ko'p miqdorda eriganda, qattiq jala quyganda toshadi. Daryo o'zaniga muz tiqilib kolganda xam toshqin ro'y beradi. Dengiz sohillari va orollarda zilzila paytida yoki okeanda vulqon otilganda to'lqin ko'tarilishi natijasida ham suv toshqini vujudga keladi.

Suv toshqinini oldini olish uchun suv omborlari qurilib, ortiqcha suvni unga burib yuboriladi, suv yoqalariga mustahkam to'g'on, dambalar quriladi.

Suv toshqini va uning talafotlari Suv toshqini ham tabiiy ofatlar orasida eng xavfli hisoblanadi. Suv toshqini, deb daryo, ko'l hovuzlardagi suv sathining keskin ko'tarilishi natijasida ma'lum maydonlardagi yerlarni suv tagida qolishiga aytiladi. Suv toshqiniga turli omillar sababchi bo'ladi:

- kuchli yomg'ir yog'ish oqibatida (jala, sel quyishi);
- qorning surunkali erishi natijadida;
- kuchli shamol esishi natijasida;
- okar daryolardagi muzliklarni yigilib, sun'iy to'g'on hosil qilinishi;
- tog jinslarining nurashi, surilishi yoki boshqa sabablar bilan suv saqlash omborlarining buzilishi oqibatida.

Kuchli yomgir yog'ishi natijasida suvlarning satxi keskin ko'tarilib, daryo, ko'llarga sig'maydi va natijada ekin maydonlarini turar joy massivlarini, yullarni suv bosadi va ularni izdan chiqaradi. Bundan tashqari, elektr energiya, aloqa uzatgichlar, melliorativ tizimlar ishdan chiqadi, chorva mollari, qishloq xo'jaligi ekinlari yo'k bo'lib ketadi, xom ashyolar, yoqilg'i, ozik ovkatlar, mineral o'g'itlar va boshqa muxim mahsulotlar yaroqsiz holga keladi, yoki butunlay yo'q bo'lib ketadi. Shular natijasida juda katta miqdorda moddiy zarar ko'rib, insonlarni yaxshi xayot kechirishiga halaqit qilishi mumkin. Suv toshqini turli joylarda, jumladan, O'zbekistonda ham tez-tez bo'lib turadi. Masalan, 1992-1995 yillarda ko'pgina viloyatlarda Xorazm, Buxoro, Surxondaryo, Kashkadaryo, Jizzax, Sirdaryo va boshqa joylarda juda katta ekin maydonlari suv ostida qolib, oqibatda juda katta moddiy zarar ko'rildi. Kuchli yomg'ir yog'ishi natijasida, suv toshqini 1993, 1994, 1995, 2000, 2001 yillarda Yevropa davlatlarida ham kuzatilib, bularning oqibatida nafaqat moddiy zarar, balki xisoblab bo'lmaydigan ma'naviy zarar insonlar o'limi yuz berdi. Oqar daryolarda suvlarning sathi muzliklar bilan qoplanishi ham suvning oqimiga qarshi to'siqlar (to'g'onlar) hosil bo'lishi natijasida suv toshqini ro'y berishi mumkin. Bu xildagi toshqin 1992 yilda Qoraqalpogiston Respublikasida Amudaryo oqib o'tadigan uchta tumanda kuzatildi. Natijada muz to'g'onlarni samolyotlardan portlatish bilan eritildi va mintaqani suv bosish xavfi bartaraf etildi. Suv toshqini kanallar va suv saqlaydigan omborlarning turli sabablarga ko'ra ishdan chiqishi oqibatida ham kuzatilishi mumkin. Umuman kanallar, suv omborlari, suv energiyasi, suv yullari hamda suvning o'zidan foydalanish maqsadida kuriladi. Hozirgi vaktida MDH davlatlarida suv sig'imi 1 million metr/kub.dan ortiq bo'lgan suv omborlari mingtaga yaqin bo'lib, ularning suv sathi 116000 kilo- metr/kub.ga teng (shundan 53 ta suv ombori O'zbekiston xududida joylashgandir). Bu suv omborlarida 55,5 milliard metr/kub.dan ortik suv saqlanib, ular orqali qishloq xo'jaligi suv bilan ta'minlanib, katta iqtisodiy samara olinadi. Lekin bunday gidrotexnik inshootlar biror sabablar bilan buzilsa, atrofida yashovchi atrof-muhitga, insonlarga, dexonchilikka jiddiy zarar keltiradi. Masalan, Chorvoq suv omborida 2,1 km/kub suv saqlanib, agar u buzilsa, 8 metr qalinlikdagi suv Toshkent viloyatining uchta tumanini 46 km/soat tezlik bilan harakatlanib, suv bosish xavfi tug'iladi. Shunga o'xshash katta hajmdagi suv omborlari Jizzax, Sirdaryo, Buxoro, Samarqand viloyatlariga ham xavf solishi mumkin. Shuning uchun suv saqlaydigan omborlarini xar xil falokatlardan asrash uchun xamma turdagi ehtiyot choralari ko'rilishi lozim. Jumladan, birlamchi va ikkilamchi saqlovchi platina qurish, har bir platinalar temir betonli qorishmalardan tayyorlanishi lozim. Gidrotexnik inshootlar quyidagi sabablarga ko'ra buzilishi mumkin. Kuchli tabiiy hodisalar okibatida:

- a) yer silkinishi,
- b) yer surilishi,
- v) kuchli sel kelishi,
- g) kuchli yomg'ir suvidan yuvilib ketishi;
- y) gidrotexnik inshoot jihozlarining eskirishi va tabiiy parchalanishi oqibatida;
- f) gidrotexnik inshootlarni loyihalashda va qurishda yul qo'yiladigan xatoliklar oqibatida;
- i) gidrotexnik inshootlardan noto'g'ri foydalanish va qoidalarini buzilishi oqibatida.

Umuman, suv toshqiniga qarshi qo'llaniladigan omillar quyidagilardan iborat:

- daryodagi suvning sarflanish darajasini oshirish,

- suv oqimiga qarshi yerlarni ko'ndalang qilib chuqur haydash,

- daryo qirg'oqlarini ko'tarishdan iboratdir. Suv toshqini xavfi tug'ilganda aholini o'z vaqtida xabardor qilish, fuqarolarni moddiy resurslarini, qishloq xo'jaligi hayvonlarini xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish eng muhim ishlardan hisoblanadi. Evakuatsiyadan oldin har bir fuqaro o'zi yashab turgan uylarni xavfsiz xolatga keltirish, ya'ni (gaz, suv, elektr tarmoqlarini o'chirish deraza va eshiklarni maxkamlab berkitishlari lozim) o'zi bilan kerakli hujjatlarini, pul va taqinchoqlarini kamida uch kunga yetadigan yegulik, oziq-ovqatlar va ichimlik suvlarini olishi zarur. Suv toshqinida qoltan odamlar turli xavfsirashlarga berilmasliklari va suv oqimi bo'yicha past sathli qirg'oq tomon suzishlari (harakatlanishlari) kerak. Suv toshqini paytida ma'lum qism odamlar (qutqaruvchilar) shu falokat xududida qolib, imkoni boricha qilinadigan ishlarni bajarishlari zarur. Aholi suv ichida qolgan oziq ovqatlarni yemasliklari va suv ichmasliklari kerak. Yashash joylarda elektrdan foydalanmasliklari lozim, chunki yong'in chiqishlarga olib kelishi mumkin. Suv toshqini xavfi o'tgandan keyin, fuqarolar o'zlarining doimiy yashash joylariga qaytib kelgach, toshqin oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlarini boshlab yuboradilar. Ular quyidagilardan iborat:

- suv bosgan joylardagi suvni chiqarib tashlash va quritish;

- uylarning yerto'lalaridagi suvlarni chiqarib tashlash;

- toshqin natijasida buzilgan joylarni, maishiy energetik tarmoqlarni, pullarni, ko'priklarni va boshqalarni qayta tiklash, qayta tiklab bo'lmaydigan, inshootlarni uylarni yiqitish va tozalash, ekinzorlarni suvdan tozalash.

Yuqoridagi tadbirlar fuqarolar muxofazasi shtabi va uning tizimlari boshchiligida, xalq ommasi ishtirokida amalga oshiriladi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Ю.Ш.Шодиметов Соғлом турмуш тарзи: ижтимоий - гигиеник ва экологик муаммолар. - Т.: Ибн Сино, 1991,б.31
2. Б.Зиёмухаммедов Экология ва маънавият. –Т:Меҳнат, 1997, б. 43
3. Ш.Т.Отабоев Инсон ва биосфера. -Т.: Ўқитувчи, 1995, б 135

4. А.С.Тўхтаев Экология асослари ва табиатни муҳофаза қилиш. -Тошкент: Ўқитувчи, 1994, б 27-28
5. Алимов Т Л Рафиков АА Экология хатолик сабоқлари Т 1991, б 61
6. Шодиметов Ю Ижтимоий экологияга кириш Т 1991, б 120-121
7. Эргашев А. Эргашев Т. Экология, биосфера ва табиатни муҳофаза қилиш. Тошкент “янги аср авлоди” 2005 й. б 58
8. Галушин В.М., Михеев А.В. Охрана природы. М.: Просвещение, 1981.
9. Экология - учебник для технических вузов. 1999.
10. Хефлинг Г. Тревога в 2000 году. М.: Мысль, 1990
11. Новиков Ю.В., Голубев И.Р. Окружающая среда и ее охрана. М.: Просвещение, 1985.